

8-sinf ONA TILI fanidan IV chorak chsb testlari

1. (B – 2,5) **“Insho”** soʻzining izohi NOtoʻgʻri berilgan javobni aniqlang.
- A. “Insho” arabcha soʻz boʻlib, “yaratish” maʼnosini beradi
 - B. “Insho” arabcha soʻz boʻlib, “bino qilish” maʼnosini beradi
 - C. “Insho” arabcha soʻz boʻlib, “qurish” maʼnosini beradi
 - D. “Insho” forsiy soʻz boʻlib, “yaratish” maʼnosini beradi
2. (B – 2,5) Uyushiq boʻlakli gapning qaysi birida umumlashtiruvchi soʻz qoʻllangan?
- A. Ufqqa tutashib ketgan polizlar goh qizgʻish, goh qahrabo rangda tovlanadi.
 - B. Mehnatda, ijodda, sanʼatda, fanda kattadir yoshlarning qoʻshgan hissasi.
 - C. Ilm, fan va fikr olami nihoyatda keng va chuqur.
 - D. Bemorning his-tuygʻulari, oʻy-xayollari va kelajak ishlari – hamma-hammasi vrachning qoʻlida.
3. (B – 2,5) _Qaysi gapda tinish belgi ishlatilishida xato mavjud.
- A. Podsho goh kulib, goh jiddiy, goh oʻy bilan quloq solardi.
 - B. Toshkent, Samarqand, Buxoroda, boʻlishdi.
 - C. Dasturxonga husayni, charos, asadi – hammasidan qoʻydik.
 - D. Ertalab togʻning etagiga kelib, bir choyxona yonida toʻxtadik.
4. (Q – 4,5) Asli qiyofangni koʻrsatishdan qoʻrqishing, **demak**, oʻzingdan nafratlanishingni bildiradi. Ushbu gapda ajratilgan soʻz izohiga mos keluvchi izohlarni toping. (Q)
- 1) Yuqoridagi gapda ajratib koʻrsatilgan soʻz ajratilgan boʻlak
 - 2) Yuqoridagi gapda ajratib koʻrsatilgan soʻz murakkab kiritma
 - 3) Yuqoridagi gapda ajratib koʻrsatilgan soʻz kiritma
 - 4) Yuqoridagi gapda ajratib koʻrsatilgan soʻz undov soʻz
 - 5) Yuqoridagi gapda ajratib koʻrsatilgan soʻz sodda kiritma
 - 6) Yuqoridagi gapda ajratib koʻrsatilgan soʻz fikrning xulosasini bildiradi
- A. 3,5,6 B. 1,4,5 C. 2,4,6 D. 1,3,5
5. (Q – 4,5) Gap boʻlaklari bilan aloqaga kirishmaydigan (hokim-tobelik) boʻlaklarga mansublarini aniqlang.
- 1) Kiritma;
 - 2) izohlovchi boʻlak;
 - 3) ikkinchi darajali boʻlak;
 - 4) kirish soʻz;
 - 5) ajratilgan boʻlak;
 - 6) undalma.
- A.1,2,3 B.1,5,6 C.1,4,6 D. 2,3,5

6. (Q – 4,5) Ushbu gaplardagi kirish soʻzning maʼno turini mos raqamlar ketma-ketligini toping.

1. Bu ishni, albatta, bajaring.
2. Demak, siz buni eshitmagansiz.
3. Avvalambor, bu ishingiz notoʻgʻri
4. Izzatlablik, ehtimol, nuqsondir.
 - a) fikrning tartibi
 - b) fikrning tasdigʻi
 - c) fikrning gumoni
 - d) fikrni xulosalash

1-b,2-d,3-a,4-c B.1-b,2-a,3-c,4-d C. 1-a,2-b,3-c,4-d D.1-d,2-a,3-b,4-c

7. (Q – 4,5) Berilgan maʼlumotlarning toʻgʻri yoki notoʻgʻri ekanligini aniqlang.

№	Maʼlumot	Ha/Yoʻq
1	Ega va hol toʻgʻridan toʻgʻri kesimga bogʻlanadi	
2	Aniqlovchi ot bilan ifodalangan har qanday boʻlakka bogʻlanaveradi	
3	Sodda gapda toʻliq shakllangan kesim bitta boʻlmasligi ham mumkin	
4	Aniqlovchi feʼl bilan ifodalangan boʻlakka bogʻlanadi	

- A. Toʻgʻri , notoʻgʻri , notoʻgʻri , toʻgʻri B. Toʻgʻri, toʻgʻri , notoʻgʻri , notoʻgʻri
C. Notoʻgʻri , notoʻgʻri , toʻgʻri, toʻgʻri D. Notoʻgʻri , notoʻgʻri , notoʻgʻri , toʻgʻri

8. (Q – 4,5) Ey farzand, agar sen har qancha notiq boʻlsang ham, oʻzingni bilganlardan pastroq tutgil, toki soʻz bilimdonligi vaqtida bekor boʻlib qolmagaysan.

Yuqoridagi gap haqidagi toʻgʻri va notoʻgʻri fikrlarni belgilang.

№	Maʼlumot	toʻgʻri	notoʻgʻri
1	Ushbu gap sodda yoyiq gap		
2	Ushbu gapda uyushiq boʻlak qatnashmagan		
3	Ushbu gapda undalma ot bilan ifodalanmagan		
4	Gapda ega mavjud emas		
5	Ajratilgan boʻlak qatnashgan		

- A.toʻgʻri, notoʻgʻri, toʻgʻri, toʻgʻri, notoʻgʻri
B. toʻgʻri, notoʻgʻri, notoʻgʻri, notoʻgʻri, toʻgʻri
C. notoʻgʻri, notoʻgʻri, notoʻgʻri, notoʻgʻri, notoʻgʻri
D. notoʻgʻri, toʻgʻri, notoʻgʻri, notoʻgʻri, notoʻgʻri

9. (Q – 4,5) Yuqoridagi(8-savol) gapda bildirilgan fikrga mos fikrlarni belgilang.

- 1) ushbu gapda toʻgʻri soʻzning foyda va zararlari haqida fikr yuritilgan
- 2) kamtarlik belgisi bilganini ham aytmasdan jim turmoq
- 3) qancha kam gapirsang, atrofdagilar uchun sirli va obroʻli koʻrinasan

- 4) bo‘lar-bo‘lmasga gapiraverish odobdan emas
5) vaqti va o‘rni kelganda so‘zlash lozim
A. 2,4,5 B. 1,3,5 C. 1,3,4 D. 2,3,4

10. (M – 5,5)

SA’VA

Derazaga osib qo‘yilgan qafasdagi Sa’va kechasi bilan tinmay sayrab chiqardi. Uning xonishini eshitgan Ko‘rshapalak uchib kelib: “Nima uchun kun bo‘yi churq etmaysan-u, nuqul kechasi sayraysan?” – deb so‘radi. Sa’va unga javob berdi: “Buning sababi bor: men ilgari kunduzi sayrab yurgan chog‘imda nogahon to‘rga ilinib qolgandim. Shundan keyin esim kirib, faqat kechalari sayraydigan bo‘ldim”. Ko‘rshapalak unga shunday tanbeh berdi: “Sen ilgari, to‘rga ilinmasingdan oldin shunaqa ehtiyotkor bo‘ - lishing kerak edi. Esingning endi kirganidan foyda yo‘q”.

Matnda tasvirlangan hodisaning sababi ko‘rsatilgan javobni belgilang

- A. Matnda qafasga tushib qolmaslik uchun insonlar yashaydigan joylardan yiroq bo‘lish lozimligi uqtirilgan.
- B. Matnda ko‘rshapalak misolida boshqalarni kamsitish aks ettirilgan.
- C. Matnda ehtiyotkorlik g‘oyasi va har bir ishni o‘z vaqtida,o‘z zamonida bajarish lozimligi uqtirilgan.
- D. Matnda to‘rga ilinib qolgan Sa’vaning hol-ahvoli bayon etilgan.

